



Qurilish ishlari

2018 yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida 82,0 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 96,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 3,9 mlrd. soʻmlik yoki 85,2 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 foiz punktga oshdi.




Qurilish ishlarining mulkchilik shakllari boʻyicha 2018 yil yanvar oyida mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 79,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 96,3 foizni tashkil qildi. Shuningdek mulkchilikning davlat mulki shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 3,7 foizni tashkil etdi.



Viloyat bo'yicha qurilish ishlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida bino va inshootlar qurilishi 66,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,4 foizni tashkil qildi. Fuqarolik qurilish obyektlar 10,5 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,4 foizni tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 4,7 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,6 foizni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'm)



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
 “Investitsiya va qurilish statistiasi” bo’limi
 Nashr uchun ma’sul: Sh.Bobojanov
 Aloqa telefoni (0362) 224-65-22